

*Tursunova Fayoza Zaripovna*

*Magistrant*

*Bank moliya akademiyasi*

*O'zbekiston*

## **RAQAMLI IQTISODIYOT - O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI**

### **STRATEGIYASINING ASOSI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mamlakatimizda iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga raqamli iqtisodiyotning kirib kelishi, qo'llanilishi va afzalliklari to'g'risidagi fikrlar keltirilgan. Shuningdek, raqamli iqtisodiyotning rivojlanish shart-sharoitlari hamda strategik yo'nalishlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamli iqtisodiyot, axborot texnologiyalari, elektron hukumat, elektron xizmatlar, dasturiy mahsulotlar, strategik loyihalar, infratuzilma, modernizatsiya, elektron to'lovlar.

*Турсунова Фаёза Зариповна  
магистрант*

*Академия банковского дела и финансов  
Узбекистан*

## **ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА – ОСНОВА СТРАТЕГИИ**

### **ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА**

**Аннотация.** В этой статье представлены предложения по вступлению, применимости и преимуществам цифровой экономики в нашей стране в нашей стране. Условия и стратегические направления развития и стратегических направлений цифровой экономики также охватываются.

**Ключевые слова:** цифровая экономика, информационные технологии, электронное правительство, электронные услуги, программное обеспечение, стратегические проекты, инфраструктура, модернизация, электронные платежи.

## **DIGITAL ECONOMY IS THE BASIS OF THE ECONOMIC STRATEGY OF UZBEKISTAN**

*Tursunova Fayoza*

*Master's student*

*Academy of Banking and Finance*

*Uzbekistan*

**Annotation.** This article presents proposals for the accession, applicability and benefits of the digital economy in our country in our country. The conditions and strategic directions of development and strategic directions of the digital economy are also covered.

**Keywords:** digital economy, information technologies, electronic government, electronic services, software, strategic projects, infrastructure, modernization, electronic payments.

**Kirish.** Jahon iqtisodiyotining tajribasidan kelib chiqqan holda XXI asrning ikkinchi o‘n yilligida bir qator iqtisodiy adabiyotlarda mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga erishish hamda makroiqtisodiy muvozanatini ta’minlashning muhim jihatni raqamli iqtisodiyot tizimiga o‘tish deb qaralmoqda. Iqtisodiy taraqqiyotning bugungi bosqichida O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, tizimga oid meyoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, yangi texnologiyalarni joriy etish, kadrlarni tayyorlash va boshqa bir qancha muhim yo‘nalishlarda samarali ishlarni bajarish, mamlakatimizda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan muhim ishlar doirasidagi asosiy vazifalar qatoriga kiradi. Ta’kidlash lozimki, keyingi yillarda O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga doir bir qancha meyoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilib, unda mazkur tizimni taraqqiy ettirishga doir ko‘plab bajarilishi lozim bo‘lgan ishlar belgilab berildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 iyuldaggi O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-3832-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PK-6079-sonli qarorlariga

binoan respublikada raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, yaqin istiqbolda barcha tarmoq va sohalarga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish vazifasi milliy statistika doirasida ham bir qancha muhim ishlarning bajarilishini, shuningdek, milliy iqtisodiyot tarmoq va sohalarini raqamlashtirishga oid indikatorlar tizimi ishlab chiqilishi, mazkur tizim uchun ma’lumotlar bazasi shakllantirilishi, maxsus kuzatuvlar, so‘rovnomalar, hisobot shakllari ishlab chiqilishini taqozo etadi. Shunday ekan, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va makroiqtisodiy muvozanatini baholash ko‘rsatkichlari tizimini shakllantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblangan raqamli iktisodiyot rivojlanishiga oid milliy indikatorlar majmuini ishlab chiqish milliy statistika tizimiga oid muhim masalalar ichida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalarga muvofiq hamda iqtisodiyot tarmoqlari va davlat boshqaruvi tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish va telekommunikatsiya tarmoqlarini kengaytirish orqali respublika iqtisodiyotining raqobatbardoshligini yanada oshirish maqsadida raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirishning qo‘sishimcha vazifalari belgilandi.

2025 yilga kelib raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 2,2 baravarga ko‘paytirishni nazarda tutgan holda, shu jumladan ishlab chiqarishni boshqarishda axborot tizimlari kompleksini joriy qilish, moliyaviy-xo‘jalik faoliyatda hisobot yuritishda dasturiy mahsulotlardan keng foydalanish, shuningdek, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish orqali uni jadal shakllantirish belgilangan.

Tahlillarga ko‘ra, 2020-2021 yillarda barcha sog‘liqni saqlash muassasalari, maktablar va maktabgacha ta’lim tashkilotlarini, qishloqlar va mahallalarni yuqori

tezlikdagi Internet tarmog‘iga ulash hamda aloqa xizmatlari sifatini oshirish belgilanganligidan ko‘zda tutilgan holda mamlakatning raqamli infratuzilmasini to‘liq modernizatsiya qilish va zamonaviy telekommunikatsiya xizmatlaridan barcha hududlarda foydalanish imkoniyatini ta’minlanishga erishildi. 2022 yilga kelib elektron davlat xizmatlari ulushi 60 foizga yetkazildi. Davlat axborot tizimlari va resurslarini yaratish hamda integratsiya qilish, davlat ma’lumotlar bazalaridagi axborotlarni unifikatsiya qilish, shuningdek, davlat xizmatlarini ko‘rsatish tartibotlarini optimallashtirish va tartibga solish orqali elektron hukumat tizimini rivojlantirish yo‘lga qo‘yildi.

2024 yilga kelib dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqarish va texnologik maydonchalar yaratish orqali “raqamli tadbirkorlik”ni rivojlantirish, ushbu sohadagi xizmatlar hajmini 3 baravarga oshirish va ularning eksportini 100 million dollarga yetkazish rejalashtirilgan. Buning uchun ta’lim tizimining barcha bosqichlarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va zamonaviy iqtisodiyot uchun zarur bo‘lgan raqamli bilimlarning darajasini oshirish, ta’lim infratuzilmasini takomillashtirish hamda “Besh tashabbus” loyihasini amalga oshirish doirasida respublikaning barcha hududlarida raqamli bilimlarga o‘qitish markazlarini ochish tashkil etildi.

2020-2022 yillarda iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarini raqamlashtirishning asosiy yo‘nalishlari ma’lum qilindi. 2022 yil 18 fevral kuni Toshkentda o‘tgan mamlakatda davlat va jamiyat qurilishining yangi bosqichiga bag‘ishlangan xalqaro konferensiyada O‘zbekiston iqtisodiyot va sanoat vazirligi tomonidan 2020-2022 yillarda iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarini raqamlashtirishning asosiy yo‘nalishlari ma’lum qilindi. Ma’lumotlarga ko‘ra, keyingi ikki yilda 37 ta korxona faoliyatida raqamlashtirish keng tatbiq etilishi hamda real sektor tarmoqlarini raqamlashtirishda quyidagi uchta strategik ustuvor yo‘nalish aytib o‘tildi:

1. Ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish, moliyaviy-iqtisodiy faoliyatni avtomatlashtirish, moddiy-texnik resurslarni hisobga olish va boshqarish tizimlari (ERP);
2. Ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishga qaratilgan axborot tizimlarni yagona axborot kompleksiga jamlash bo'yicha dasturiy mahsulotlar;
3. Mijozlar bilan munosabatlarni tartibga solish, mahsulotlarni elektron tizimlar orqali sotish, marketingni boshqarish tizimlari (CRM).

Yuqorida qayd etilgan yo'nalishlar bo'yicha mamlakatimizda 2023 yilga qadar umumiy qiymati 5,2 trln so'mga teng jami 92 ta loyiha amalga oshirilishi rejalashtirilmoqda. Loyihalar 37 ta korxona faoliyatiga doir bo'lishi hamda quyidagi yirik o'zgarishlarni nazarda tutadi:

- "Olmaliq KMK", "Yoshlik-1" va "Qolmoqqir" konlarida kon transport kompleksini avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi;
- "Navoiy kon-metallurgiya kombinati", "Muruntov" konida kon-transporti kompleksini avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi;
- "O'zbekneftgaz" kompaniyasining boshqarishga yo'naltirilgan korporativ axborot tizimi (ERP), bundan tashqari konlardagi texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va monitoring qilish axborot tizimi;
- "O'ztransgaz" dispetcherlik boshqaruvi va ma'lumotlarni yig'ish dasturiy-apparat kompleksi (SCADA).

Bugungi kunda mamlakatimizda tashkil etilgan raqamli maydonchalar, ya'ni raqamli platformalarni chuqurlashtirish va ularning faoliyatini kengaytirish bilan bog'liq masalaga alohida e'tibor qaratiladi. Tarmoq rivojlanish darajasini ko'paytirish, oshirish hisobiga ushbu vazifalarni amalga oshirish nazarda tutilmoqda. 2022 yilda 47 ta rejalashtirilgan loyihami amalga oshirish uchun 1,2 trln so'm ajratilishi, keyingi yilda bu ko'rsatkich 2,1 trln so'mni tashkil etib, 23 ta loyiha bajarilishi belgilangan.

Xulosa o‘rnida ta’kidlashimiz lozimki, raqamli iqtisodiyotning yetakchi davlatlar YAIMdagi ulushi yil sayin o‘sib bormoqda. Masalan, uning AQSH iqtisodiyotidagi ulushi 10,9 foiz, Rossiyada 3,9 foiz, Hindistonda 5,5 foiz, Belarusda 6,5 foiz va Xitoyda 10 foizni tashkil etadi. O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari hukumat tomonidan iqtisodiyotni raqamli ko‘rinishga transformatsiya qilishda alohida tashkilot tuzishni istisno etmaydi. Masalan, 2011 yilda Germaniyada raqamlashtirish bo‘yicha hukumatning harakatlar rejasining alohida strategiyasi qabul qilingan -Industrie 4.0, AQShda esa raqamlashgan sanoatni yaratish uchun Industrial Internet Consortium tashkiloti tuzilgan. Rossiya Federatsiyasida „Milliy texnologik tashabbus“ degan tashkilot tashkil etish orqali shu jarayonni rivojlantirish masalasi ancha tizimli ravishda olib borilgan. Albatta, biz bu borada o‘zimizning tajribaga suyangan holda ishimizni tashkil etishimiz maqsadga muvofiqdir.

### **Foydalanimanligi adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli Farmoni // [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 18 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi №5598-sonli Farmoni // [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. Клаус Шваб. Четвертая промышленная революция. – М., Эксмо. 2016. С.30
4. Gulyamov S.S. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. - T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019 y
5. “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasi // [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
6. Dustova M. Prospects of improving independent education in the higher education system of uzbekistan //Intent Research Scientific Journal. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 30-34.

7. Sabitjon M., Dustova M. X. QADIMGI VA HOZIRGI DUNYO DAVLATLARI IQTISODIYOTIDAGI FARQLAR, BOG'LIQLIKLAR VA O'XSHASHLIKlar //PEDAGOG. – 2022. – T. 5. – №. 7. – C. 804-807.
8. Yuldasheva S., Normurodov S. Improving the mechanisms of formation and development of housing and communal economy cluster //Agroeconomics scientific-practical agroeconomic journal. – 2022.
9. Юлдошева Ш. А. САНОАТ КОРХОНАЛАРИ САМАРАЛИИГИНИ ОШИРИШ БҮЙИЧА ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ //Экономика и социум. – 2023. – №. 11 (114)-1. – С. 1168-1172.
10. Юлдошева Ш. А. ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА ОБСЛУЖИВАНИЕ В ЖИЛИЩНО-КОММУНАЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ //Экономика и социум. – 2022. – №. 12-1 (103). – С. 1158-1165.